



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
<i>Xuseynova Abira Amanovna</i>	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
<i>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</i>	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
<i>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</i>	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
<i>Asatova Dildora Aslamovna</i>	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
<i>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</i>	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
<i>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</i>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
<i>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</i>	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
<i>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
<i>Mitaliboyeva Dildora</i>	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
<i>Nartayeva Shahoza Yulchibayevna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
<i>Normatova Nilufar Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
<i>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</i>	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
<i>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
<i>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</i>	
“Sab' ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
<i>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</i>	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
<i>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
<i>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
<i>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
<i>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</i>	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	



FASILITATSION YONDASHUV ASOSIDA KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ADAPTIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Normatova Nilufar Komilovna

Qarshi davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası doktoranti

Annotatsiya: Maqolada fasilitatsion yondashuvning kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ilmiy-metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, erkin muloqot muhitini yaratish, emotsional xavfsizlikni ta'minlash hamda pedagog-bola o'zaro ta'sirida fasilitator rolining ahamiyati yoritiladi. Fasilitatsiya tamoyillari asosida moslashuvchan fikrlash, ijtimoiy moslashuv, o'zini boshqarish va kommunikativ faollik kabi adaptiv ko'nikmalar shakllanishining psixologik-pedagogik mexanizmlari asoslab beriladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar va o'yin texnologiyalarining samaradorligi ilmiy dalillar asosida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: fasilitatsiya, adaptiv ko'nikmalar, maktabgacha yosh, ijtimoiy moslashuv, pedagogik yordam, emotsional xavfsizlik, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: The article analyzes the scientific and methodological potential of the facilitation approach in developing adaptive skills among children of early preschool age. The study highlights the importance of supporting children's activity, establishing an open communication environment, ensuring emotional safety, and strengthening the facilitator role of the educator in child-teacher interaction. Based on facilitation principles, the psychological and pedagogical mechanisms underlying the development of adaptive skills—flexible thinking, social adjustment, self-regulation, and communicative activity—are substantiated. The effectiveness of using interactive methods and play-based technologies in the educational process is also demonstrated.

Key words: facilitation, adaptive skills, early preschool age, social adaptation, pedagogical support, emotional safety, communicative competence.

Аннотация: В статье анализируются научно-методические возможности фасилитационного подхода в развитии адаптивных навыков у детей младшего дошкольного возраста. В исследовании раскрывается значимость поддержки детской активности, создания свободной коммуникативной среды, обеспечения эмоциональной безопасности, а также роли педагога-фасилитатора во взаимодействии с ребёнком. На основе принципов фасилитации обоснованы психолого-педагогические механизмы формирования адаптивных навыков: гибкости мышления, социальной адаптации, саморегуляции и коммуникативной активности. Кроме того, демонстрируется эффективность применения интерактивных методов и игровых технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: фасилитация, адаптивные навыки, младший дошкольный возраст, социальная адаптация, педагогическая поддержка, эмоциональная безопасность, коммуникативная компетентность.

KIRISH

Kichik maktabgacha yosh davri bolalar rivojlanishining eng sezgir bosqichlaridan biridir. Bu davrda bola atrof-muhitga moslashishni, yangi vaziyatlarga mos reaksiyalar shakllantirishni, tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatishni o'rganadi. Adaptiv ko'nikmalar aynan shu jarayonlarda asosiy tayanch bo'ladi. Ularning shakllanishi nafaqat tabiiy rivojlanish omillariga, balki pedagog tomonidan yaratilgan psixologik-pedagogik sharoitga ham bevosita bog'liq.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim amaliyotida fasilitatsion yondashuv tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Bu yondashuv bolaga bosim o'tkazmagan holda uning ichki faolligini uyg'otish, o'z-o'zini namoyon etishiga yordam berish, shaxsiy tajribasini mustahkamlashga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda faol nazoratchi emas, balki qo'llab-quvvatlovchi – faoliyatni yengillashtiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Aynan mana shu rol bolalarning moslashuvchanlik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi adaptiv sifatlarini rivojlantirishda muhim omilga aylanadi.^[9]

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, ko'plab tadqiqotlarda kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda moslashuv jarayonlari murakkab kechishi, emotsional beqarorlik, ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklar kuzatilishi qayd etilgan. Bu esa pedagogik jarayonni takomillashtirish, xususan, fasilitatsiya tamoyillarini maqsadli qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Fasilitatsion yondashuvning psixologik-pedagogik mexanizmlarini o'rganish, ularni amaliyotga moslashtirish va adaptiv ko'nikmalarni shakllantirishda qanday samarali natija berishini aniqlash maqolaning asosiy vazifasini belgilaydi.

Kutilayotgan ilmiy natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun metodik asos yaratadi, pedagoglar faoliyatida bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash imkonini kengaytiradi hamda adaptiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini sifat jihatidan yaxshilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim jarayonida adaptiv ko'nikmalarni shakllantirish masalasi o'zbek pedagogika ilmda keng yoritilgan.

Hasanboeva O. U. o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida psixologik-pedagogik sharoitning ahamiyatini, xususan, bola faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhit tasirini ta'kidlaydi. Uning fikricha, erkin tanlovga asoslangan faoliyat, pedagogning yumshoq yo'naltiruvchilik roli va jarayonning bosimsiz tashkil etilishi bolalarda moslashuvchanlik va o'zini boshqarishning tabiiy shakllanishiga zamin yaratadi.

Yo'ldosheva N. tomonidan yaratilgan psixologik yondashuvlarda esa, kichik maktabgacha yosh bolalarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonidagi qiyinchiliklar chuqur tahlil qilingan bo'lib, bu yondashuvlar fasilitatsion metodlar samaradorligini ilmiy asoslab beradi.

Rivojlanish psixologiyasiga bag'ishlangan Sayfullayeva R. tadqiqotlari adaptiv ko'nikmalarni shakllantirishda individual rivojlanish trayektoriyasini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. To'xtasinova Z. esa emotsional rivojlanishning psixologik asoslarini yoritib, bolalarda emotsional barqarorlik va o'zini boshqarish sifatlarini mustahkamlash uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini asoslab beradi.

Shuningdek, G'ulomova D. maktabgacha ta'lim metodikasiga bag'ishlangan ishlarida interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va hamkorlikka asoslangan o'quv faoliyatining adaptiv rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Akramova F. tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi fasilitatsion yondashuv bilan bevosita bog'liq bo'lib, bolalarning muloqotga kirishish, tengdoshlari bilan rollarga bo'linib o'ynash, sheriklikni yo'lga qo'yish kabi ko'nikmalarini faol rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamatova G. o'yin faoliyati bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida, syujetli-rolli o'yinlarning moslashuvchan fikrlash, ijtimoiy tajriba orttirish va qaror qabul qilishning tabiiy mexanizmi sifatida shakllanishini asoslaydi.

Tursunova M. zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tahlil qilar ekan, fasilitatsion yondashuvning axborot-kommunikatsion va interfaol texnologiyalar bilan uyg'unlashganda yanada samarali ishlashini ta'kidlaydi. Ushbu manbalar kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonining psixologik-pedagogik mexanizmlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoniga fasilitatsion yondashuvning ta'sirini o'rganishga yo'naltirildi. Ish jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotining qulay psixologik-pedagogik sharoitga ega guruhlar bazasida olib borildi. Tadqiqotda 3–4 yosh oralig'idagi bolalar ishtirok etdi.

Metodologik asos sifatida bolaning faol subyekt sifatida rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan fasilitatsiya tamoyillari qabul qilindi. Pedagogning pozitsiyasi nazorat qiluvchi emas, balki yo'naltiruvchi va yengillashtiruvchi sifatida talqin qilindi. Shu bois tadqiqot jarayoni bolalar uchun erkin tanlov imkoniyati, xavfsiz muloqot muhiti va emotsional barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan interaktiv faoliyatlar bilan boyitildi.

Diagnostik jarayon uch bosqichda tashkil etildi:

1. **Boshlang'ich monitoring** – bolalarning moslashuv darajasi, o'zaro muloqotdagi faolligi, o'zini boshqarish qobiliyati va emotsional reaksiyalari kuzatildi. Kuzatuv kartalari va pedagogik diagnostika varaqalari asos qilib olindi.



2. **Fasilitatsiya asosidagi ta'sir dasturi** – o'yin texnologiyalari, juftlikda bajariladigan mashqlar, ijtimoiy rolli vaziyatlar, erkin tanlovga asoslangan faoliyatlar joriy qilindi. Pedagog har bir jarayonda bolaning individual ehtiyojini inobatga olib, qo'llab-quvvatlovchi replikalar, yordamchi savollar va yo'naltiruvchi mulohazalar bilan ishtirok etdi.
3. **Yakuniy baholash** – dasturdan keyin adaptiv ko'nikmalardagi o'zgarishlar baholandi. Kuzatuv natijalari taqqoslandi, sifat birliklari bo'yicha dinamik o'sish aniqlashtirildi. ^[6]

Ma'lumotlar tahlilida sifat tahlili, pedagogik amaliyotni solishtirish va o'sish darajasini qayd etuvchi toifaviy baholashdan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida fasilitatsion yondashuv sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Boshlang'ich diagnostika materiallari bolalarning muayyan qismi ijtimoiy vaziyatlarga ehtiyotkorlik bilan kirishishini, faol muloqotga tayyorlik darajasining pastligini, emotsional reaksiyalarning tez-tez o'zgarib turishini va o'zini boshqarish elementlarining yetarli shakllanmaganini yaqqol namoyish etdi. Aksariyat bolalarda o'yin vaziyatlarida tashabbus ko'rsatishdan qochish, tanish bo'lmagan faoliyatga nisbatan xavotir, tengdoshlar bilan kelishuvga erishishda qiyinchiliklar kuzatildi. ^[3]

Fasilitatsiyaga tayangan pedagogik dastur joriy etilgach, o'quv jarayonida bir qator barqaror, miqdoriy hamda sifat jihatdan aniq ko'rinadigan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Ijtimoiy faollikning oshishi. Dastlab muloqotdan chetlanishga moyil bo'lgan bolalar keyingi bosqichlarda o'zlari suhbat boshlashga, tengdoshlarini o'yinga taklif qilishga, o'yin jarayonida o'z rollarini faol ijro etishga intila boshladi. Bolalarning tashabbus chastotasi ortdi, muloqotga kirishish oralig'i qisqardi. ^[8]

Emotsional barqarorlikning kuchayishi. Avvaliga tez-tez ko'zga tashlangan o'zgaruvchan kayfiyat, yig'loqi reaksiyalar, qiyin vaziyatlarda charchoq belgilari kamaydi. O'yin jarayonidagi kichik nizolarni hal qilishda bolalar muvozanatni yo'qotmay, vaziyatni tushuntirish kabi konstruktiv usullarga murojaat qila boshladilar.

O'zini boshqarish ko'nikmalarining yaxshilanishi. Impulsiv harakatlar soni sezilarli kamaydi. Faoliyat davomida o'zini tutish, navbat kutish, o'yin qoidalariga rioya qilish, murakkab topshiriqlarni sabr bilan bajarish qobiliyati takomillashdi. Pedagogning qo'llab-quvvatlovchi savollari bolalarga harakatlarini ongli tartibga solishga yordam berdi.

Ijtimoiy-rolli o'yinlarning kengayishi. Bolalar "do'kon", "shifokor", "quruvchi", "oilaviy rollar" kabi syujetli o'yinlarda faolroq ishtirok eta boshladi. Rollarni o'zaro almashtirish, sheriklar bilan kelishuvga erishish, vaziyatni tasavvur qilish kabi murakkab ijtimoiy mexanizmlarni bajara olish qobiliyati kuchaydi.

Erkin tanlov asosidagi faoliyatga qiziqishning ortishi. Fasilitatsion muhit bolalarni mustaqil tanlov qilishga undadi. Dastlab "qaysi o'yinni tanlash"da ikkilanib qoladigan bolalar keyinchalik faoliyatni o'zlari tavsiya qila boshladi. Tanlov qilgan faoliyatda uzoqroq vaqt davomida diqqatni saqlash kuzatildi.

Kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishi. Bolalar o'z fikrini sodda, ammo aniq bayon qilishga harakat qila boshlashdi. Tengdoshining fikrini eshittirish, savollarga javob berish, o'yinga taklifni muloyim shaklda ifodalash kabi muloqot elementlari mustahkamlandi.

Muvofiqlik va moslashuv darajasining oshishi. Yangi o'yin sharoitlari, o'zgaruvchan vazifalar, guruh ichidagi vaziyatlar bolalarda qo'rquv uyg'otmay qo'ydi. Avval tanish vazifalarni tanlagan bolalar endi murakkab faoliyatlarni sinab ko'rishga tayyor bo'ldilar.

Yakuniy monitoring ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, fasilitatsiya orqali tashkil etilgan o'yin va interfaol mashg'ulotlar bolalarda adaptiv rivojlanishning asosiy komponentlari – moslashuvchanlik, ijtimoiy faollik, emotsional barqarorlik, o'zini boshqarish, hamkorlikda harakat qilish bo'yicha sezilarli dinamikani vujudga keltirdi.

Tahlil natijalari pedagogik qo'llab-quvvatlovchi, bosimsiz, bola tashabbusiga tayangan muhit adaptiv ko'nikmalarining shakllanishi uchun eng qulay psixologik platforma ekanini ko'rsatdi. Shu bois fasilitatsiya yondashuvini maktabgacha ta'lim amaliyotida muntazam qo'llash bolaning uzoq muddatli ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Olingan natijalar fasilitatsion yondashuvning kichik maktabgacha yoshdagi bolalar adaptiv rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri murakkab psixologik-pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida kuzatilgan o'zgarishlar shuni tasdiqlaydiki, bola erkin muloqot qilish, o'z tashabbusini namoyon etish va yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashish imkoniyatiga ega bo'lganida, uning mustaqil rivojlanish trayektoriyasi sezilarli faollashadi. Fasilitatsiya tamoyillari asosida tashkil etilgan pedagogik muhit bolaga o'z harakatiga egalik qilish, faoliyat ma'nosini anglash, emotsional tajribani boshqarish va tengdoshlari bilan konstruktiv aloqalar o'rnatishga imkon beradi.

Ushbu yondashuvning eng muhim jihatlaridan biri – pedagogning rollari o'zgarishidir: u an'anaviy nazoratchi va buyruq beruvchi mavqeidan chekinib, bolaning ichki faolligini qo'llab-quvvatlovchi, muhitni yengillashtiruvchi hamroh sifatida harakat qiladi. Aynan mana shu o'zgarish bolalarning faol ishtirokini jonlantiradi va adaptiv ko'nikmalarni shakllantirishga bevosita zamin yaratadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, fasilitatsion yondashuv ta'sirida bolalarning emotsional barqarorligi oshgan, o'zini boshqarish elementlari mustahkamlangan, muloqotga kirishish bo'yicha ichki qarshilik pasaygan. Bunda pedagogning faol tinglashi, bolaning his-tuyg'ularini tan olishi va unga o'z fikrini ifoda etish imkonini berishi muhim psixologik tayanch vazifasini bajardi. Bolaning o'z ovozigga ega bo'lishi, fikrini hech qanday jazolash yoki uyaltirish xavfisiz bayon qila olishi ijtimoiy moslashuvning tabiiy mexanizmini ishga tushiradi. Shu bois diagnostika jarayonida o'yin vaziyatlariga kirishishning tezlashgani, rollarni almashtirishdagi dadillik, konfliktlarda konstruktiv yechim izlash ko'nikmasining rivojlanganini kuzatish mumkin bo'ldi. Bularning barchasi emotsional xavfsizlik va psixologik qo'llab-quvvatlovchi muhitning barqaror ta'sirini tasdiqlaydi.

Adaptiv ko'nikmalar rivojlanishining yana bir muhim jihati – faoliyatning erkin tanlov asosida tashkil qilinishidir. Fasilitatsion yondashuvda bola o'zi xohlagan o'yin turini, sheriklarni, rollarni tanlash imkoniga ega bo'ladi. Bu holat bolada mas'uliyat, qaror qabul qilish, faoliyatni davom ettirishga ichki motivatsiya paydo qiladi. Tadqiqotda kuzatilgan o'sish shuni ko'rsatadiki, erkin tanlov bolalarning tashabbus ko'rsatishiga, faoliyatga chuqurroq sho'ng'ishiga va o'z resurslarini samarali ishga solishiga yordam beradi. Mustaqil tanlov jarayonida paydo bo'ladigan mikro tangliklarni pedagog tomonidan yengil yo'naltirish orqali hal etish bolalarning ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutish bo'yicha tajribasini boyitadi. Bu jarayon asta-sekin ijtimoiy moslashuvning ichki mexanizmiga aylanadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik maktabgacha yoshda adaptiv rivojlanishning asosiy determinantlari – emotsional muvozanat, kommunikativ faollik, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, o'zini boshqarish va moslashuvchanlik – fasilitatsion jarayon bilan uyg'un rivojlanadi. Shu bois ushbu yondashuv nafaqat alohida o'yin mashg'ulotlarida, balki kundalik pedagogik jarayonning tarkibiy qismi sifatida qo'llanishi zarur. Bu bolalarning uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishiga, o'quv faoliyatiga psixologik tayyorligiga, jamoa ichida o'z o'rnini topishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fasilitatsiya amaliyotining natijalari shuni ko'rsatdiki, bola o'ziga hurmat bilan munosabat qilinadigan, fikri qadrlanadigan, tashabbusiga javob qaytariladigan muhitda istiqbolli rivojlanish trayektoriyasiga ega bo'ladi.

Tadqiqotning umumiy xulosalariga ko'ra, fasilitatsion yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni shakllantirishning samarali pedagogik tizimi sifatida o'zini namoyon qildi va amaliyotda keng qo'llashga arzigulik mexanizm ekanini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot fasilitatsion yondashuvning kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy asosda tasdiqlab berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bola rivojlanishining ushbu sezgir bosqichida pedagogik jarayonni ichki erkinlikka, tashabbusning qo'llab-quvvatlanishiga, emotsional xavfsizlikning ta'minlanishiga yo'naltirish uning ijtimoiy va psixologik barqarorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Fasilitatsiya tamoyillari asosida yaratilgan muhit bolaga o'z harakatiga egalik qilish, o'z fikrini erkin ifoda etish, o'yin vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilish, tengdoshlar bilan konstruktiv muloqot olib borish imkonini beradi. Tadqiqotda kuzatilgan o'sish dinamikasi shuni anglatadiki, pedagogning nazorat qiluvchi emas, balki yordamchi va yengillashtiruvchi mavqei bolalarning adaptiv rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Adaptiv ko'nikmalarning rivojlanishida o'yin faoliyati va interfaol mashg'ulotlarning o'rni alohida bo'ldi. Erkin tanlovga asoslangan faoliyat bolalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirdi, o'z imkoniyatini baholash va vaziyatga mos qaror qabul qilish ko'nikmasini mustahkamladi. Tadqiqot ko'rsatdiki, o'yin jarayonida vujudga keladigan tabiiy ijtimoiy vaziyatlar – rollarni bo'lishish, sherik bilan kelishish, qoidalarni saqlash, nizolarni anglangan tarzda bartaraf etish – adaptivlikning tabiiy tajribasiga aylanadi. Shu jarayonda pedagogning yumshoq yo'naltiruvchi strategiyalari bolalarning moslashuvchan fikrlashi, o'zini boshqarish va emotsional barqarorlik kabi sifatlarining shakllanishida markaziy rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida fasilitatsiya yondashuvini muntazam qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Buning sabablaridan biri shuki, mazkur yondashuv bolalarning nafaqat hozirgi rivojlanish ehtiyojlariga, balki ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi ijtimoiy, kommunikativ va emotsional muvaffaqiyatiga ham zamin yaratadi. Adaptiv ko'nikmalari rivojlangan bola yangi muhitga tez moslashadi, guruh faoliyatida faol bo'ladi, qiyin vaziyatlarda ichki resurslarini ishga soladi va ijobiy ijtimoiy tajriba asosida o'zini namoyon etadi. Shunday qilib, fasilitatsion yondashuv maktabgacha yoshdagi bolaga uzoq muddatli istiqbolda foyda beradigan ustunliklar yaratadi.



Umumlashtirib aytganda, fasilitatsiya pedagogikaning zamonaviy talablarga mos, bola shaxsining tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali tizimi sifatida o'zini namoyon qildi. Ushbu yondashuv bolada mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuv, o'zini boshqarish va emotsional barqarorlik kabi adaptiv ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning natijalari amaliyotga tadbiiq etilishidan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarni fasilitator roliga tayyorlash, o'quv muhiti va mashg'ulotlar jarayonini fasilitatsiya tamoyillariga moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga, bolalarning ijtimoiy-psixologik muvaffaqiyatiga va rivojlanish trayektoriyasining barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboeva O. U. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'zDJTU nashriyoti, 2019. – 256 b.
2. Yo'ldosheva N. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 184 b.
3. Sayfullaeva R. Maktabgacha ta'limda rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2021. – 212 b.
4. Akramova F. Maktabgacha ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi. – Toshkent, 2022. – 168 b.
5. To'xtasinova Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional rivojlanishning psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2018. – 140 b.
6. G'ulomova D. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – Toshkent: ZiyoNET, 2017. – 190 b.
7. Нуриддинов К. Дж. Талабаларда академик маданиятни шакллантиришнинг инновацион шакл ва услублари. // Интеробразование и глобальные исследования, 2025, №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-akademik-madaniyatni-shakllantirishning-innovatsion-shakl-va-uslublari> (дата обращения: 29.11.2025).
8. Nishonova Z. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2016. – 320 b.
9. Yo'ldosheva N. Shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi. – Toshkent: Sharq, 2015. – 276 b.
10. Tursunova M. Maktabgacha ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2019. – 154 b.
11. Mamatova G. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatini rivojlantirish. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2021. – 132 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.